TOSHKENT VILOYATI BO ‘STONLIQ TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 28 - dekabr 314-10-136-Q/22 Bo‘stonliq tuman hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida

"Davlat kadastrlari to‘g‘risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risidagi nizomining 12-bandiga asosan "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida" gi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrimturlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Bo‘stonliq tuman filiali (E.Dehqonov) tumanda ushbu qaror bilan tasdiqlangan Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi asosida ish yuritilishini ta'minlasin.

3. Mazkur qaror rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Irisbekov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Axmedov**

Bo‘stonliq tuman hokimining
2022 yil 28 dekabrdagi
314-10-136-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish

TARTIBI

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risidagi nizomiga asosan uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar, internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo‘lgan fond.

4. Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig‘ma jildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig‘ma jildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari Davlat kadastrlari palatasi Bo‘stonliq tuman filiali arxivida saqlanadi.

5. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrimturlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yokiularning ishonchli vakillari Davlat kadastrlari palatasi Bo‘stonliq tuman filialiga ariza bilan murojaat qiladi.

6. Arizalar Davlat kadastrlari palatasi Bo‘stonliq tuman filiali tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o‘zida arizalar reestriga qayd qilinadi.

7. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va

nusxalar berish uchun Davlat kadastrlari palatasi Bo‘stonliq tuman filialiga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat ko‘rinishida ariza berishlari mumkin.

8. Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig‘ma jildining har bir varog‘iga Davlat kadastrlari palatasi Bo‘stonliq tuman filiali rahbari tomonidan asliga to‘g‘ri degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun ichida huquq egasiga topshiriladi.